

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMİY-AMALİY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
CBT.....7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHALARIGA TA'SIRI.....12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV.....17-19

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR.....20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI.....24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA .....26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI .....30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) .....33-37

*Норов Шухрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) .....38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) .....42-43

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTALARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI.....44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI .....48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOIY INNOVATSIYALARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI .....64-66

<i>Abduraimova Nigora</i>	
TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i>	
MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i>	
TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI .....	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i>	
INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
<b>FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Gafurova Munojat</i>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i>	
ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....	93-98
<b>FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Yusufova Farangiz</i>	
HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i>	
O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i>	
IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i>	
CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuz</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida) .....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i>	
"MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i>	
"DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i>	
TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbanova Aziza</i>	
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARING AHAMIYATI .....	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i>	
ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

*Qosimova Malika*

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH  
METODLARI ..... 137-140

*Ayimbetova Damekhan*

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA  
OBRAZLAR TIZIMI ..... 141-145

*Yo'lidasheva Mahliyo*

"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI ..... 146-149

## ***YURIDIK FANLARI***

*G'ofurov Ramzbek*

DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI ..... 150-154

*Turdibaeva Mukhaddas*

JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES ..... 155-160

*Gafurova Shoira*

ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM  
ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI ..... 161-165

*Komilov Avazbek*

PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI  
VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR ..... 166-169

*Babajanov Farrux*

IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS  
ETTIRISH ..... 170-175

## ***PEDAGOGIKA FANLARI***

*Nuriyllaeva Ugulxon*

ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И  
ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ..... 176-181

*Tursinova Zoxida*

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI  
BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI ..... 182-191

*Babayeva Shahnoza*

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI ..... 192-194

*Rasulova Baroxon*

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV  
INNOVATSION BAHOLASH USULLARI ..... 195-199

*Zokirjonov Akramjon*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI ..... 200-202

*Baratova Yulduz*

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALТИРИЛГАН  
YONDASHUVNING AHAMIYATI ..... 203-206

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ..... 207-210

**TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*  
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN ..... 211-213

*Mamadaliiev Xasanxon*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)  
И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-  
МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ..... 214-218

*Maxmudbekov Boburmirzo*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA  
OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH ..... 219-221

**PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Usmanova Lilia*  
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ  
ТРАДИЦИИ ..... 222-225

**SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*  
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI ..... 226-231

## ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI

**Abdullayev Sodiqjon Maxmudovich**

Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti,  
Klinik fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

**Anotatsiya.** Tezisda globallashuv jarayonining kuchayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida salomatlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanish omillari ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi, shaxsiy va ijtimoiy salomatlik, ekologik xabardorlik hamda madaniy qadriyatlar o'rtaсидagi uzviyilik inson salomatligiga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirmoqda. Tadqiqotda global ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar, transmilliy tibbiy tajribalar, shuningdek, mahalliy mentalitet va milliy identitetning salomatlik madaniyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** salomatlik madaniyati, globallashuv, ijtimoiy salomatlik, sog'lom turmush tarzi, raqamli muhit, madaniy qadriyatlar, axborot texnologiyalari, transmilliy madaniyat, ijtimoiy determinantlar, mentalitet, ekologik ong.

## FACTORS OF FORMATION OF HEALTH CULTURE IN THE MODERN GLOBAL ENVIRONMENT

**Abdullayev Sodiqjon Makhmudovich**

Namangan State University, Faculty of Medicine,  
Senior Lecturer, Department of Clinical Sciences

**Annotation.** The thesis analyzes the factors of formation and development of health culture in the conditions of increasing globalization and rapid development of information and communication technologies based on a socio-philosophical approach. Today, the connection between a healthy lifestyle, personal and social health, environmental awareness and cultural values is fundamentally changing the views on human health. The study examines the impact of global media, digital platforms, transnational medical experiences, as well as local mentality and national identity on health culture.

**Key words:** health culture, globalization, social health, healthy lifestyle, digital environment, cultural values, information technologies, transnational culture, social determinants, mentality, ecological consciousness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-21>

**Kirish.** XXI asr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini – raqamli, madaniy va informatsion transformatsiyalar uyg'unlashgan global davrni boshlab berdi. Bu davrning asosiy mezonlaridan biri sifatida inson salomatligiga bo'lgan yondashuvda sifat jihatidan yangi paradigmalarning shakllanishi kuzatilmoqda. Endilikda salomatlik faqatgina tibbiy muolajalarga bog'liq bo'lgan biologik holat emas, balki ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, axborot-kommunikatsion va ekologik omillar bilan bevosita bog'langan murakkab ijtimoiy konstrukt sifatida namoyon bo'lmoqda[1]. Aynan shu ijtimoiy konstrukt asosida salomatlik madaniyatining zamonaviy global muhitda shakllanish omillarini tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning 2023-yildagi hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, sog'lom turmush tarzi va salomatlik madaniyatini shakllantirishga investitsiya qilgan davatlarda aholi umr ko'rish davomiyligi 10-15 yilga ortgani aniqlangan [2]. Bunda nafaqat tibbiyot tizimi, balki ta'lim, madaniyat, kommunikatsiya va ijtimoiy muhitning o'rni benihoya muhim bo'lgan. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida

sog'lom turmush tarzi konsepsiysi milliy siyosat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ularning har birida sog'liq madaniyati bolalikdan boshlab jamiyatga singdiriladi. Shu bilan birga, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)ning 3-maqsadi bevosita "sog'lom hayotni ta'minlash va har qanday yoshdagi odamlar farovonligini rag'batlantirish"ga qaratilgan bo'lib, ushbu tamoyillar bugungi global muhitda salomatlik madaniyatining shakllanishini tezlashtiruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy global muhitda shakllanayotgan salomatlik madaniyati ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellektga asoslangan sog'liq monitoring tizimlari, telemeditsina, onlayn maslahatlar va mobil ilovalar orqali tobora ommalashmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'yicha sog'liqni saqlashga oid mobil ilovalar soni 350 mingdan oshgan bo'lib, ularning yillik o'sish sur'ati 17,2 foizni tashkil qilmoqda [3]. Bu esa raqamli transformatsiya natijasida salomatlik madaniyati ommalashuvi va unga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko'rsatadi. Biroq global axborot oqimining kuchayishi, texnologik innovatsiyalar, transmilliy korporatsiyalarning ta'siri va ommaviy madaniyatning tarqalishi bir tomonidan salomatlik madaniyatining universallashuviga sabab bo'layotgan bo'lsa, boshqa tomonidan, mahalliy madaniy kodlar va qadriyatlar tizimiga tahdid solmoqda. Ayniqsa, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, ekologik ong va ruhiy salomatlik masalalarida g'arbona model universal tarzda ilgari surilayotgani, biroq ularning barcha hududlarga mos tushmasligi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, past va o'rta daromadli mamlakatlarda bolalar va o'smirlar orasida noto'g'ri ovqatlanish va gipotoniya ko'rsatkichi 45% dan yuqori bo'lib, bu holat sog'lom turmush tarzi haqidagi global strategiyalar yetarlicha moslashtirilmaganini anglatadi [4]. O'zbekiston misolida olib qaralganda, davlat tomonidan sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, sog'lom turmush tarzi targ'iboti, ekologik va jismoniy madaniyatni rivojlantirish borasida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2019–2023 yillar davomida "Sog'lom turmush tarzini qaror toptirish" milliy dasturi doirasida 12 million nafardan ortiq fuqaro sport va sog'lomashtirish tadbirlariga jalb etilgan. Bundan tashqari, "Yashil makon" va "Sog'lom avlod uchun" dasturlari orqali aholining ekologik ongi va sog'liqka bo'lgan munosabati bosqichma-bosqich o'zgartirilib bormoqda. Shu bilan birga, raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalarining joriy etilishi (masalan, e-poliklinika, onlayn navbat, telekonsultatsiyalar) sog'liq madaniyatining yangi bosqichga o'tishiga xizmat qilmoqda. Nazariy jihatdan olib qaralganda, salomatlik madaniyati – bu nafaqat shaxsiy gigiyena yoki individual odatlarni, balki jamiyatning sog'liqni qadrlashga bo'lgan umumi yondashuvini, ijtimoiy instittlarning bu boradagi siyosatini va madaniy me'yorlar tizimini qamrab oluvchi kompleks tushunchadir. Bu madaniyatni shakllantiruvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi: 1) ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar; 2) axborotga bo'lgan erkin kirish imkoniyati; 3) sog'liq bo'yicha ta'lif; 4) diniy va madaniy qadriyatlar tizimi; 5) gender va yoshta oid ijtimoiy stereotiplar; 6) ekologik muhit va urbanizatsiya darjasи; 7) davlat sog'liq siyosatining prioritet yo'nalishlari. Bugungi kunda sotsiologiya, antropologiya, falsafa, psixologiya va tibbiyot fanlarida salomatlik madaniyatining epistemologiyasi, determinatsiyasi va konstruksiyasi haqida turli yondashuvlar mavjud. Masalan, amerikalik sotsiolog A. Kleinman sog'liq madaniyatini "shaxs va jamiyat o'rtasidagi sog'liqni idrok qilishdagi intersubyektiv model" deb talqin qilgan bo'lsa, nemis olimi T. Schmid sog'liq madaniyatini "normal holat" emas, balki "insonning ijtimoiy-

iqtisodiy tenglik sharoitida salomatligini boshqarish qobiliyati" sifatida tushuntiradi[5]. Bu turli yondashuvlar salomatlik madaniyatining faqat tibbiy emas, balki axloqiy, ma'naviy va mafkuraviy mezonlarga ham asoslanganligini anglatadi. Shuningdek, madaniy diversifikatsiya sharoitida sog'liq madaniyatining shakllanishi, mahalliy an'analar va globallashuv o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari ilmiy tahlilga muhtojdir. Masalan, Osiyo mamlakatlarida ayurveda, an'anaviy xitoy tabobati, Islom tibbiyoti kabi qadimiy sog'liq tizimlari jamiyatda hali ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy g'arb tibbiyoti texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holatda qo'llanilmoqda. Bunday o'zaro integratsiyalashuv salomatlik madaniyatining globallashuv sharoitida o'ziga xos "gibrid model"da rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shunday qilib, zamonaviy global muhitda salomatlik madaniyatining shakllanishi ko'p qirrali, murakkab va dinamik jarayon bo'lib, u ijtimoiy-falsafiy, madaniyatshunoslik va sog'liqni saqlash sohalari chorrahasida yuzaga kelmoqda. Bu tezisning dolzarbligi aynan salomatlik madaniyatini shakllantiruvchi omillarni kompleks yondashuvda tahlil qilish, raqamli global muhitda madaniy qadriyatlar va sog'liq siyosatining o'zaro aloqadorligini ohib berishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi esa shundaki, salomatlik madaniyatiga bo'lgan yondashuv bir yoqlama tibbiy yoki ijtimoiy modelga emas, balki interdisiplinar va madaniyatlararo kompetensiyani talab etuvchi yondashuvga asoslanadi.

Zamonaviy davrda inson salomatligiga oid muammolar nafaqat tibbiyot sohasi doirasida, balki ijtimoiy-falsafiy, madaniy, axloqiy va iqtisodiy kontekstlarda ham dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. Global pandemiyalar, raqamli axborot makonining ta'siri, urbanizatsiya, ekologik muvozanatning buzilishi, stress va ruhiy zo'riqishlarning ortishi zamonaviy insonning sog'lig'i va salomatlik madaniyatiga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, 2020-yilda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi butun dunyo miqyosida sog'liqni saqlash tizimlarining zaif tomonlarini ko'rsatib berdi. Juhon sog'liqni saqlash tashkilotining 2021-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya davrida 90 foizdan ortiq mamlakatlarda birlamchi tibbiy xizmatlar ko'rsatilishida uzilishlar kuzatilgan, natijada salomatlik madaniyatini mustahkamlovchi omillar jiddiy sinovdan o'tgan [6]. Shuningdek, zamonaviy global muhitda salomatlik madaniyatining shakllanishi masalasi insoniyat oldida turgan yangi ijtimoiy chaqiriqlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Rivojlangan davlatlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy faoliyk, ovqatlanish madaniyati, psixologik salomatlik va kasalliklarning oldini olish bo'yicha keng ko'lamli milliy dasturlar shakllangan bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlarda bu boradagi muammolar ko'proq strukturaviy, iqtisodiy va madaniy sabablarga borib taqaladi. Masalan, OECD (2023) hisobotiga ko'ra, sog'lom turmush tarzini yuritayotgan aholi ulushi Skandinaviya davlatlarida 78–84 foiz atrofida bo'lsa, Osiyo va Afrika mintaqasida bu ko'rsatkich 35–47 foiz atrofida saqlanib qolmoqda. Bu esa salomatlik madaniyatining shakllanishi va uni barqarorlashtirishda ijtimoiy tengsizlik, ta'lim darajasi, madaniy qadriyatlar va iqtisodiy barqarorlik kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, globallashuv jarayoni milliy sog'lomlik qadriyatları va salomatlik konsepsiyalariga ham o'zining bevosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Global sog'liqni saqlash strategiyalarining jamiyatlarga singdirilishi ko'pincha g'arbona modelga asoslangani sababli, u mahalliy an'ana, mentalitet va qadriyatlar bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Bu borada antropologik va falsafiy

tadqiqotlar salomatlik madaniyatining nafaqat fiziologik, balki sotsiokultural va semantik kontekstlarda shakllanishini ta'kidlamoqda [7]. Ayniqsa, "salomatlik" tushunchasining o'zi ham turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi – ayrim jamiyatlarda bu ruhiy osoyishtalik va ijtimoiy uyg'unlik bilan bog'lanayotgan bo'lsa, boshqa muhitlarda esa jismoniy bardamlik va mehnatga layoqatlilik mezonlariga asoslanadi. Shu bois, zamonaviy global muhitda salomatlik madaniyatining shakllanishi ham universal, ham lokal mezonlar o'rtasidagi murakkab dialektik jarayon sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sog'liq madaniyatiga bo'lgan ta'siri tobora ortib bormoqda. Mobil ilovalar, sog'liq monitoringi uchun mo'ljallangan gadjetlar, masofaviy tibbiy maslahatlar va raqamli psixologik xizmatlar salomatlik madaniyatini individualizatsiyalash va mas'uliyatli salomatlik yondashuvini shakllantirishda muhim rol o'yndaydi. Biroq bu jarayon jamiyatda raqamli tafovut (digital divide) masalasini ham keskinlashtirmoqda. Masalan, Pew Research Center (2022) ma'lumotlariga ko'ra, AQShda yuqori daromadli qatlamning 92 foizi sog'liq monitoringi ilovalaridan foydalanayotgan bo'lsa, past daromadli guruhlarda bu ko'rsatkich atigi 37 foizni tashkil etmoqda. Bu esa salomatlik madaniyatining shakllanishida raqamli transformatsiya bilan birga, adolatli imkoniyatlar ta'minoti muhimligini ko'rsatadi.

Zamonaviy global muhitda salomatlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi nafaqat shaxsiy tashabbusga, balki davlatlararo strategik islohotlar, milliy siyosat, xalqaro hamkorlik va raqamli infratuzilmalarga bog'liq bo'lib bormoqda. Ayniqsa, XXI asrning birinchi choragida sog'liqni saqlash tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlar salomatlikni individual mas'uliyat darajasidan jamiyatning umumiylara qo'shilishiga aylantirishga yo'naltirilmoqda. Bu islohotlar ko'p hollarda kompleks, ko'p bosqichli va xalqaro standartlarga asoslangan tarzda olib borilmoqda. Avvalo, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar salomatlik madaniyatini rivojlantirish uchun sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi milliy strategiyalarni qabul qildi. Masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida 2021–2027 yillarga mo'ljallangan "Healthy Europe" dasturi doirasida har bir a'zo mamlakatda sog'lom ovqatlanish, jismoniy faoliyat, ruhiy salomatlik va nosog'lom odatlarga qarshi kurashish yo'nalishlarida maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda[7]. Bu dasturda sog'liq madaniyatining faqat klinik jihatlari emas, balki ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar va ekologik omillar bilan bog'liqligi e'tirof etilgan. Shuningdek, ushbu islohotlar sog'liqni saqlash sohasida gender tengligini ta'minlash, ayollar salomatligini muhofaza qilish, yoshlar orasida profilaktik ishlarni kuchaytirish kabi yo'nalishlarni ham qamrab olgan. Raqamli transformatsiya ham salomatlik madaniyatini rivojlantirishda tub burilish yasagan islohotlardan biridir. Ko'plab mamlakatlar masofaviy tibbiy maslahatlar, onlayn salomatlik monitoring tizimlari, mobil ilovalar orqali sog'liqni nazorat qilish kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etmoqda. Jahan sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ilgari surilgan "Digital Health Strategy 2020–2025" konsepsiysi doirasida salomatlik madaniyatini raqamli platformalar orqali targ'ib qilish, sog'lom turmushni ommalashtirish va kasalliklarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tavsiya etilgan[8]. Ushbu yondashuv jamiyatda salomatlikni saqlashda faqat davlat emas, balki har bir fuqaroning o'zini o'zi anglashiga va ongli ishtirokiga asoslangan madaniy transformatsiyani ko'zda tutadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda salomatlik madaniyatini rivojlantirish yo'lida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2019–2023 yillar uchun belgilangan "O'zbekiston Respublikasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va

ommaviy jismoniy faollikni oshirish bo'yicha konsepsiya" asosida sog'lom ovqatlanish, ekologik gigiyena, jismoniy faollik va tibbiy madaniyatni keng ommaga singdirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda[9]. Mazkur Konsepsiyada fuqarolarning sog'lom turmush tarziga o'tishini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari, sog'lom oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar ajratish, sport inshootlarining sonini oshirish va ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarini kengaytirish kabi choralar ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, 2021-yil 10-noyabrdagi Prezident qarori asosida Sog'lom turmush tarzini joriy etish bo'yicha respublika darajasida "5 million qadam" loyihasi yo'lga qo'yildi. Ushbu loyiha aholining salomatlikka nisbatan mas'uliyatli yondashuvini shakllantirish, jismoniy faollikni kundalik turmushga kiritish, yurak-qon-tomir, semizlik, diabet kabi kasalliklar profilaktikasini kuchaytirishga qaratilgan. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida UNICEF, UNDP, WHO kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda aholi salomatligi, ayniqsa bolalar va ayollar sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, "Mother and Child Health" dasturi doirasida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi Markaziy Osiyo davlatlarida tug'ruqni xavfsiz o'tkazish, homiladorlik davrida onalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash va emizikli onalar uchun profilaktik xizmatlarni yaxshilash kabi islohotlar amalga oshirilgan[10]. Bundan tashqari, tibbiy ta'limda ham salomatlik madaniyatini chuqur o'rghanish, sog'liqni saqlashda kommunikativ yondashuv, bemorlar bilan axloqiy munosabat, madaniyatlararo kompetensiya kabi jihatlar yangi o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu esa sog'liqni faqat davolash emas, balki sog'lom turmushni tushuntirish va tarbiyaviy vosita sifatida targ'ib qilishga asoslangan zamonaviy salomatlik siyosatining tarkibiy qismidir. Zamonaviy global muhitda salomatlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ko'p qirrali, innovatsion va fanlararo yondashuvlarga asoslanmoqda. Bu islohotlar nafaqat sog'liqni saqlash tizimlarini zamonaviylashtirish, balki jamiyatda sog'lom fikr, ongli mas'uliyat va madaniy qadriyatlar bilan uyg'un salomatlik konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois ushbu islohotlar nafaqat davlat siyosati, balki jamiyat ongini tubdan o'zgartiruvchi global harakatlar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Zamonaviy global muhitda salomatlik madaniyatini insoniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu madaniyat faqat tibbiy xizmatlar bilan cheklanmay, balki shaxsiy, ijtimoiy va madaniy omillarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali tizim sifatida qaralmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, ekologik o'zgarishlar, demografik siljishlar va ijtimoiy tarmoqlarning kuchayib borayotgan ta'siri salomatlikni saqlash va targ'ib qilish sohasini yangidan-yangi chaqiriqlar oldida qoldirmoqda. Shu sababli salomatlik madaniyatini rivojlantirishda davlat siyosati, xalqaro hamkorlik, sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish, shuningdek, aholi o'rtasida sog'liq madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan uzlucksiz ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisda ko'rib chiqilganidek, hozirgi vaqtida salomatlik madaniyatining shakllanishi nafaqat individual ong darajasida, balki ijtimoiy ong va milliy qadriyatlar kontekstida ham kechmoqda.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Ravshanovna X. S. GLOBALLASHUV VA MADANIY EKSPANSIYA //Prospects for innovative technologies in science and education. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 54-59.

2. Firdavsiy O'tkir o'g A. et al. OILADA SOG 'LOM TURMUSH TARZI SHAKLLANTIRISHDA STRESS OMILLARINING TA'SIRI //YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 23-26.
3. Raxmatullayeva O. GLOBALLASHUV DAVRIDA OMMAVIY MADANIYATNING YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA TA'SIRI //Наука и инновация. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 117-120.
4. Oydinoy M., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANGICH TALIM O'RTASIDA BOLALARNING MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 125-131.
5. Siroj R. O. Z. YOSHLARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZI RIVOJLANISHIDA MILLIIY VA DUNYOVIY QADRIYATLARNI UYG 'UNLASHTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY T AHLIL //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. 1. – C. 184-186.
6. Muruvvat A., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY VA AHVOQIY QADRYATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING RO'LI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 246-253.
7. Tilloyeva N., Zubaydova N. SOG'LOM TURMUSH TARZI: MUHIM JIHATLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR //PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – T. 1. – №. 6. – C. 234-238.
8. Gulbahor O., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 77-82.
9. Zaynabxon S., Shohbozbek E. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING ROLI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 187-197.
10. Ергашбаев Ш. O'zbekiston sharoitida uzuksiz ta'lif tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 314-316.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.